

LOYIXA ISHLARI PUDRAT SHARTNOMASI

21«11»2022 yil.

228-12-171-OB/2022-son

Kelgusida «Buyurtmachi» deb nomlanuvchi **Gurlan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi** nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor **I.Raximov** bir tomondan, kelgusida «Loyixachi» deb nomlanuvchi **”XORAZM YOL KOPRIK QURILISH” MChJ** nomidan ish yurituvchi raxbar **N.Saidov** ikkinchi tomondan, **“Gurlan tuman Eshimjiron maxallasida ochiq byudjet partalida g‘olib bo‘lgan Nurli yo‘l va tutashtiruvchi ko‘chalari ichki xo‘jalik yo‘llarini joriy ta‘mirlash”** ob'ektiga smeta xujjatlarini ishlab chikarishni shartnomasini tuzdilar.

1. Shartnomaning mazmuni

1.1. Loyixachi Buyurtmachining loyixalash topshirig‘i bo‘yicha ishchi loyixa-smeta xujjatlarini ishlab chikish majburiyatini oladi.

1.2. Buyurtmachi loyixa-smeta ishlarini bajarish uchun topshirik berish, zarur bo‘ladigan boshlang‘ich ma‘lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish, belgilangan tartibda va mikdorda xaqini to‘lash majburiyatini oladi.

1.3. Loyixachi ko‘rsatib o‘tilgan ishlarni «Korxonalar, bino va inshootlari loyixa smeta xujjatlarining tarkibi, ishlab chiqish tartibi va tasdiqlash» xaqidagi 1.03.01-03 ShNQ qoida va qo‘llanmalari va mazkur shartnomaning xujjatlariga asoslanib bajaradi va tugallaydi.

2. Ishlarni bajarish muddati

2.1. Loyixachi ishlarni dastlabki avans to‘lovi amalga oshirilgan kundan boshlab bajarishga kirishadi.

2.2. Mazkur shartnomada LSXni tayyorlash muddati, ishlar boshlangan kundan boshlab **5 kun** etib belgilanadi.

2.3. Buyurtmachi tomonidan topshiriq, birlamchi ma‘lumotlarni berish va Loyixachi tomonidan Buyurtmachining topshirig‘i bo‘yicha ilovadagi ko‘chalarni ishchi LSX xujjatlarini ishlab chiqish, amaldagi tartib qoidalar bo‘yicha topshirish muddatlarini tomonlar kalendar jadvalda belgilaydilar va u shartnomaning ajralmas qismi xisoblanadi.

3. Shartnoma baxosi.

3.1. Mazkur shartnoma bo‘yicha Loyixachi tomonidan bajarilgan tanlov natijasida aniqlangan va tanlov komissiyasining qarori (**15.11.2022 yil Lot № 183981**) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig‘imlar, ajratmalar va KKS bilan joriy narxlarda **28 000 000 (Yigirma sakkiz million)** so‘mni tashkil etadi.

4. To‘lov shartlari.

4.1. Shartnomada milliy valyuta «so‘mda» o‘zaro xisob-kitob qilinishi belgilanadi, to‘lovlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri Loyixachi xisob raqamiga pul o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

4.2. Mazkur shartnoma bo‘yicha maqsadli avans, ishlar umumiy qiymatining 30 foizini tashkil qiladi va shartnoma imzolangan kundan boshlab 5 bank ish kuni ichida to‘lab beriladi.

4.3. Buyurtmachi mazkur shartnomada belgilangan ishlar to‘laligicha bajarilib, xajmi, sifati va Loyixachining xisoboti tekshirilib, Davlat ekspertizalaridan o‘tkazilib, aniqlangan kamchilik va xatolar, bildirilgan e‘tirozlar bartaraf qilinib ijobiy xulosalar olingandan keyin shartnoma qiymati doirasida ilgari berilgan avansni xisobga olgan xolda yakuniy to‘lovni amalga oshiradi.

5. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.

Loyixachining majburiyatlari:

5.1. Loyixalash xaqidagi topshiriqqa va boshqa boshlang‘ich ma‘lumotlarga muvofiq ishlarni bajarish va natijasini shartnomada belgilangan Buyurtmachiga topshirish majburiyatlarini oladi.

5.2. Ob'ekni LSX xujjatlari va nuqsonlar dalolatnomalarini tayyorlab, Buyurtmachi bilan birgalikda foydalanish tashkilotlari (elektr tarmoqlari korxonasi, vodokanal, raygaz, yong‘in xavfsizligi nazorati), tegishli davlat organlari va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan kelishib olish.

5.3. Buyurtmachining roziligisiz LSX xujjatlarini uchinchi shaxslarga bermaslik.

5.4. Tayyorlangan LSX xujjatlari asosida uchinchi shaxslarda ishni bajarishga qarshilik qilish yoki bajarishni cheklash xuquqi yo‘qligini kafolatlaydi.

5.5. Buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan dastlabki va birlamchi ma‘lumotlarni, muxandislik qidiruv xulosalarini, Buyurtmachining roziligisiz uchinchi shaxslarga bermaslik va ulardagi ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik, ulardan faqat ushbu shartnomadagi predmetda foydalanish majburiyatini oladi.

5.6. Ob'ektida qurilish ishlari to‘laligicha yakunlangandan so‘ng, ishchi komissiyasiga Loyixachi ob'ektning LSX xujjatlari asosida qurilganligi to‘g‘risida xulosa taqdim qilish.

5.7. LSX xujjatlarini bir-biriga mutanosibligi (mos kelishi) va ish xajmlarini ishchi chizmalarida berilgan ish turlari mosligi ShNK talablariga javob berishiga loyixachi tashkiloti buyurtmachi va pudratchi oldida javobgardir.

Buyurtmachining majburiyati:

5.8. Loyixachidan olingan LSX xujjatlaridan faqat mazkur shartnomada nazarda tutilgan maqsadlar uchun foydalanish, LQI xujjatlarini Loyixachining roziligisiz uchinchi shaxslarga bermaslik va ulardagi ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik.

5.9. Shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomani 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni qabul qilib olish va bajarganlik uchun Loyixachiga xaq to‘lash.

5.10. Loyixachiga loyixa ishlarini bajarishda ushbu shartnomada nazarda tutilgan xajmda va shartlarda xizmat ko‘rsatish.

5.11. Tayyor bo‘lgan LSX xujjatlarini tegishli davlat organlari va fuqarolarning o‘zini - o‘zi boshqarish organlari bilan kelishib olishda Loyixachi bilan birga qatnashish.

5.12. Loyixachiga bog'liq bo'lmagan xolatlar sababli loyixa ishlarini bajarish uchun boshlang'ich ma'lumotlar o'zgarishi bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni Loyixachiga to'lash.

5.13. Tayyorlangan LSX xujjatlarining kamchiliklari borligi munosabati bilan uchinchi shaxs tomonidan Buyurtmachiga nisbatan qo'zg'atilgan da'vo yuzasidan ishga qatnashishga Loyixachini jalb qilish.

5.14. Loyixachining xuquqlari:

- LSX xujjatlarini ishlab chiqish jarayonida zarurat bo'lsa ayrim maxsus qismlarini bajarish uchun yordamchi (subpodryadchiklarni) jalb qilishga xaqlidir.

6. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi

6.1. Bajarilgan ishlarni baxolash va qabul qilib olish texnik topshiriq talablari asosida kalendar jadval bo'yicha amalga oshiriladi.

6.2. Loyixachi tomonidan topshiriladigan va rasmiylashtiriladigan xujjatlar royxati texnik topshirikda aniklanadi.

6.3. Loyixachi ishlarni bajarib bo'lgach, Buyurtmachiga texnik topshiriqda ko'rsatilganidek topshirish - qabul qilish dalolatnomasi bilan birgalikda ilova qilib bitta elektron variant va 3ta nusxada xujjatlar komplektini xisobot bilan taqdim etadi.

6.4. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'rsatilganidek, topshirish - qabul qilish dalolatnomasini va xisobot xujjatlari bajarilgan ishlarni 5 kun mobaynida qabul qilish majburiyatini oladi va Loyixachiga imzolangan, yoki asosli e'tiroz bildirilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasini jo'natadi.

6.5. Bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish davomida buyurtmachining asosli e'tirozi bo'lsa, kamchiliklarning ro'yxati va ularni bartaraf etishning aniq muddatini belgilovchi ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

6.6. Agar ishlarni bajarish jarayonida, keyinchalik uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi ma'lum bo'lib qolsa, tomonlar 5 kun mobaynida bir-birlarini ishlar to'xtatilganligi haqida xabardor qilishlari shart va 10 kun mobaynida ishlarni davom ettirish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan yo'nalishlarini oydinlashtiruvchi masalalarni ko'rib chiqishlari kerak. Ishlar to'xtatilgan hollarda tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan majburiyatlar yuklanadi.

6.7. O'zaro xisob-kitoblar qilishning muddati kelganligi, tomonlarning biri mazkur shartnomadagi ishlarni to'xtatish haqidagi yozma xabarnoma bergan sanadan xisoblanadi.

6.8. Bajarilgan ishlar (bosqichlar)da kamchilik va nuqsonlar aniqlanganda loyixachi ularni beg'araz bartaraf etadi.

6.9. Agar Loyixachi o'tgan bosqich uchun xisobot bermasa, keyingi bosqich uchun moliyalashtirish ishlari bajarilmaydi.

7. Taraflarning javobgarligi.

7.1. Loyixachi LSX xujjatlaridagi kamchiliklar uchun, shu jumladan keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan LSX xujjatlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun qilingan xarajatlarni qoplaydi.

7.2. LSX xujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda, Loyixachi Buyurtmachining talabi bilan 10 kun muddatda LSX xujjatlarini bepul qayta ishlab chiqishi va buning oqibatida keltirilgan zararni to'lashi shart.

7.3. Tomonlarning majburiyatlarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganliklari uchun javobgarliklari O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risidagi» qonunga, xamda O'zbekiston Respublikasi Fuqoralik kodeksiga asosan belgilanadi.

7.4. Loyixachi tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

7.5. Penyaning to'langanligi va zararning qoplanganligi taraflarni o'z majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

7.6. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq belgilanadi.

8. Qorruptsiyaga qarshi kurashish shartlari

8.1. Tomonlar xamda ularning vakillari mazkur shartnoma buyicha uz majburiyatlarini bajarayotganda Uzbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish tug'risidagi konun xujjatlarining talablariga zid keladigan xar kandy xarakterlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif kilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik kilmaydi, pora sifatida pul tulamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki uz xizmat majburiyatlaridan foydalangan xolda pora bergan shaxsning manfaatlarini kuzlab muayyan xarakterlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy kiymatliklar yoki mulkiy naf olmaydi. Tomonlar ushbu xarakterlarga yul kuymaslik buyicha choralar kurilishiga kafolat beradi.

9. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch xolati (fors – major).

9.1. Agar tomonlar majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolishi tabiiy xodisalar, xarbiy xarakterlar va boshqa bartaraf etib bo'lmaydigan boshqa kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, xamda bu xolat mazkur shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolgani uchun javobgarlikdan ozod bo'ladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarining ijro muddati bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat, shuningdek shu vaziyat keltirib chiqargan oqibat xukm surgan vaqtga mos ravishda orqaga suriladi.

9.2. Agar bartaraf etib bo'lmaydigan kuch vaziyati yoki uning oqibatlari 3 oydan ortiq vaqtga cho'ziladigan bo'lsa, Loyixachi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki noma'lum vaqtga to'xtatish uchun chora-tadbirlar ko'rishni muxokama qiladilar. Agar tomonlar ikki oy mobaynida bir to'xtamga kela olmasalar, tomonlarning xar qaysisi shartnomani bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

10. Qo'shimcha shartlar

10.1. Buyurtmachi 1.1 - bandda ko'rsatilgan ob'ektdan tashqari, Loyixachi tomonidan taqdim etilgan bajarilgan ish natijalaridan foydalanishga xaqli emas, Loyixachi olingan birlamchi ma'lumotlardan boshqa maqsadlar uchun foydalanish xuquqiga ega emas.

10.2. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan tomonlarning o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy - xukukiy bazasi tugrisida» gi qonuniga, xamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga asosan belgilanadi.

11. Shartnomaning amal qilish muddati va shartlari

11.1. Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va uning shartlari to'liq bajarilguncha o'z kuchida qoladi.

11.2. Shartnomaning muddati tugashiga qaramay, tomonlar javobgarlikdan ozod etilmaydi.

11.3. Shartnomaning amal qilish muddati **31.12.2022** yilgacha.

12. Baxslarni xal etish tartibi

12.1. Shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek keltirilgan zararni qoplash chog'ida tomonlar o'rtasida vujudga keladigan baxslar o'zora muxokama qilinib kelishuvga erishish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, qonunchilikda belgilangan tartibda sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

13. Shartnomani o'zgartirish va unga qo'shimchalar kiritish tartibi va bekor qilish tartibi.

13.1. Ushbu shartnomaga xar kandy o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda xaqiqiy xisoblanadi.

13.2. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga ko'ra, yetkazilgan zararni qoplash sharti bilan yo'l qo'yiladi.

13.3. Loyixachining aybi bilan ishlarning borishi to'xtab qolsa va ishlarning tugatilishi shartnomada belgilangan muddatdan bir oydan oshiq muddatga kechiktirilsa, berilgan topshiriqda nazarda tutilgan ishlar sifati mavjud talablarga javob bermasa, Buyurtmachi shartnomani bekor qilishga xaqli.

13.4. Loyixachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra loyixa ishlari Buyurtmachi tomonidan bir oydan oshiq muddatga to'xtatilsa, Buyurtmachi loyixalash ishlarining xaqini to'lash imkoniyatiga ega bo'lmasa, Loyixachi shartnomani bekor qilishga xaqli.

13.5. Shartnomani bekor qilish xaqida qarorga kelgan tomon ikkinchi tomonga 10 kun oldin yozma bildirishnoma yuboradi, ikkinchi tomon 10 kungacha e'tiroz bildirmasa shartnoma bekor qilingan xisoblanadi.

14. Tomonlarning rekvizitlari:

BUYURTMACHI	PUDRATCHI
Gurlan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	"XORAZM YOL KOPRIK QURILISH" MChJ
Manzili: Gurlan t Mustaqillik ko'chasi 2-uy	Manzili: Urganch shaxar Partov k 6-uy 2pr
Tel/faks:365-15-40	Tel/faks: 977916525
shx/r:401722860332087045204110005	x/r: 20208000204600825002
Bank: Markaziy bank Toshkent shaxar XKKM	Bank: TIF Milliy bank Urganch filiali
MFO: 00014	MFO: 00547
INN: 206944034	INN: 300384037
OKED: 70100	OKED:
Moliya vazirligi yagona g'azna xisob varag'i	
x/r:23402000300100001010	
INN: 201122919	

M.O'.


(Imzo)



M.O'.

N.Saidov

(Imzo)

	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	IKROM RAXIMOV AXMEDOVICH
	Imzolangan sana	21.11.2022 10:15
	Hujjat kodi	BR3422118138
	Hulosa kodi	ES4856615214

21«11»2022 yil.

№-228-12-171-OB/2022-sonli shartnomaga 1-ilova

“Gurlan tuman Eshimjiron maxallasida ochiq byudjet partalida g‘olib bo‘lgan Nurli yo‘l va tutashtiruvchi ko‘chalari ichki xo‘jalik yo‘llarini joriy ta‘mirlash”
bo‘yicha loyixa ishlarini bajarish


G R A F I G I

№	Ob'ekt nomi va manzili	Ishlar turi	Ishlar qiymati jami, ming so‘m	shu jumladan 2022 yil		qurilish davomida
				noyabr	dekabr	
	1	2	3	4	5	6
1	“Gurlan tuman Eshimjiron maxallasida ochiq byudjet partalida g‘olib bo‘lgan Nurli yo‘l va tutashtiruvchi ko‘chalari ichki xo‘jalik yo‘llarini joriy ta‘mirlash”	Loyixasmeta ishlari	28 000 000	28 000 000		-
	JAMI:		28 000 000	28 000 000		-

Buyurtmachi

Loyixachi



	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	IKROM RAXIMOV AXMEDOVICH
	Imzolangan sana	21.11.2022 10:15
	Hujjat kodi	BR3422118138
	Hulosa kodi	ES4856615214

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

ES4856615214

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **Xo'jalik shartnomasi**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Gurlan tumani obodonlashtirish bo'limi tomonidan 18.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Gurlan tuman yuridik
markazi
bosh yuristkonsulti:**



M.K.QO‘ZIBAYEV

18.11.2022

Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 183981 на приобретение Гурлан тумани Эшимжирон махалласида очиқ бюджет парталида ғолиб бўлган Нурли йўл ва туташтирувчи кўчалари ички хўжалик йўлларини жорий таъмирлаш учун лойиха смета хужжатларини тайёрлаш.

Способ проведения электронный

Дата 15.11.2022

Время рассмотрения 15.11.2022 11:54

Закупочная комиссия Гурлан туман Ободонлаштириш бошқармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	RAXIMOV IKROM AXMEDOVICH	Бошқарма бошлиғи	Гурлан туман Ободонлаштириш бошқармаси
Секретарь комиссии	NARIMMETOV O‘TKIRBEK SHUXRATOVICH	Иқтисодчи	Гурлан туман Ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	XASANOV ODILBEK BEKTURDIYEVICH	Техник назоратчи	Гурлан туман Ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	SAPARBAYEV YUSUPBAY ISKANDAROVICH	Бош хисобчи	Гурлан туман Ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	DJUMATOV RASHID ZARIFOVICH	Инфратузилма обектлари ва автотранспортдан фойдаланиш бўлими бошлиғи	Гурлан туман Ободонлаштириш бошқармаси
Член комиссии	SARIBAYEV AZAMAT BALTABAYEVICH	Бош мухандис	Гурлан туман Ободонлаштириш бошқармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 15.11.2022 года № лота 183981.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 40

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по разработке проектно-сметных работ
Подробное описание	Гурлан тумани Эшимжирон махалласида очиқ бюджет парталида ғолиб бўлган Нурли йўл ва туташтирувчи кўчалари ички хўжалик йўлларини жорий таъмирлаш учун лойиха смета хужжатларини тайёрлаш ва экспертизадан ўтказиб бериш.
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	33 600 000.00
Стартовая сумма	33 600 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие

баллы:

Критерий №1 Tanlash ishtirokchisining moliyaviy ahvoli

Тип: Бинарное значение

Описание: Asosiy vositalarning qoldiq qiymati 100 mln. so'm va undan ko'p-7ball: Muddati o'tgan kreditorlik qarzdorligi mavjud emasligi-7 ball: O'tgan yilda 20 mln.so'm foydasi (soliq to'langunga qadar) mavjudligi-7 ball: Davlat ro'yxatidan o'tgan sanasi (xar bir yil uchun 1 ball 10 yil uchun 10 ball) (Korxonaga guvohnomasi va nizomi yuklanadi)-10 ball: Ob'ektning buyurtmachi belgilangan boshlang'ich narxining 20%gacha miqdoridagi aylanma mablag'lar mavjudligi (xizmat qiluvchi bank tomonidan tasdiqlangan aylanma mablag'lari mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnoma asosida baholanadi)-7 ball

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"XORAZM YO L KO PRIK QURILISH" MЧЖ	38	1	36	Экспертная		
ХОРАЗМЙУЛЛОЙИХА МЧЖ	38	1	31	Экспертная		
"LOYIHA STRUKTURA" mas'uliyati cheklangan jamiyati	38	1	36	Экспертная		

Критерий №2 Mashina va mexanizmlar ro'yxati

Тип: Бинарное значение

Описание: Loyihani bajarish uchun zarur bo'lgan 2 ta dan kam bo'lmagan oxirgi 20 yillikda ishlab chiqarilgan shaxsiy TV mavjudligi (20 yildan oldin ish/chiq TV baholanmaydi.)-8 ball: Loyihani bajarish uchun zarur bo'lgan 10 ta birlikdan kam bo'lmagan ofis texnikalarining mavjudligi: Kompyuterlar jam-masi kamida-3 ta; Nusxa olish va ko'chirish texnikalari kamida-3 ta; Maxsus asboblari kamida 4 ta (niveler, shagomer, lazerniy metr va b.q) (xar bir ofis texnikasi uchun 1 ball)-10 ball: Loyihani baj u-n zarur bo'lgan kamida quyidagi 2 ta lit-gan, sekatga ega das/ta'm: ABS4 – 5 ball: Qurqiyamat - 4 ball

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"XORAZM YO L KO PRIK QURILISH" MЧЖ	27	1	27	Экспертная		
ХОРАЗМЙУЛЛОЙИХА МЧЖ	27	1	27	Экспертная		
"LOYIHA STRUKTURA" mas'uliyati cheklangan jamiyati	27	1	27	Экспертная		

Критерий №3 Qurilish maydonini ko'rganlik va loyihani o'rganganlik to'g'risida ma'lumotnoma

Тип: Бинарное значение

Описание: Qurilish maydonini ko'rganligi va loyihani o'rganib chiqilganligi to'g'risida ma'lumotnomada obyektning organligi va shu obyekt chizmasini korsatishi shart-3 ball

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"XORAZM YO L KO PRIK QURILISH" MЧЖ	3	1	3	Экспертная		
ХОРАЗМЙУЛЛОЙИХА	3	1	0	Экспертная	Дисквалифицирован	

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
МЧЖ						
"LOYIHA STRUKTURA" mas'uliyati cheklangan jamiyati	3	1	3	Экспертная		

Критерий №4 Tanlash ishtirokchisi haqida umumiy ma'lumotlar

Тип: Бинарное значение

Описание: Ish staji 3 yildan kam bo'lgan oliy ma'lumotli qurilish mutaxassisligiga ega bo'lishi majburiy rahbarlardan 1 kishi mavjudligi-8 ball: 5 yil ish stajiga ega 2 kishidan kam bo'lgan diplomga ega injener-texnik xodimlarni mavjudligi. (xar bir xodimga 4 ball)-8ball: Doimiy ravishda ishlovchi 10 tadan kam bo'lgan malakaviy ishchilar mavjudligi. (xar bir xodimga 0,8 ball)-8 ball: Mexnatni muxofaza kilish va texnik xavfsizlik xodimlari 1 kishi mavjudligi-8 ball

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
"XORAZM YO L KO PRIK QURILISH" МЧЖ	32	1	32	Экспертная		
ХОРАЗМЙУЛЛОЙИХА МЧЖ	32	1	32	Экспертная		
"LOYIHA STRUKTURA" mas'uliyati cheklangan jamiyati	32	1	24	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
"XORAZM YO L KO PRIK QURILISH" МЧЖ	33 600 000.00	28 000 000.00 UZS	28 000 000.00	00.00	28 000 000.00	14.11.2022 11:30:01	20
"LOYIHA STRUKTURA" mas'uliyati cheklangan jamiyati	33 600 000.00	33 200 000.00 UZS	33 200 000.00	00.00	33 200 000.00	14.11.2022 20:02:39	16.86747

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
"XORAZM YO L KO PRIK QURILISH" МЧЖ	78.4	20	98.4
ХОРАЗМЙУЛЛОЙИХА МЧЖ	Не прошел	Не прошел	Не прошел
"LOYIHA STRUKTURA" mas'uliyati cheklangan jamiyati	72	16.86747	88.86747

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 183981 от 15.11.2022 года на приобретение Гурлан тумани Эшимжирон махалласида очик бюджет парталида ғолиб бўлган Нурли йўл ва туташтирувчи кўчалари ички хўжалик йўлларини жорий таъмирлаш учун лойиха смета хужжатларини тайёрлаш. определила победителем:

"XORAZM YO L KO PRIK QURILISH" МЧЖ
300384037

и резервный исполнитель: "LOYIHA STRUKTURA" mas`uliyati cheklangan jamiyati (302792937)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	RAXIMOV IKROM AXMEDOVICH	Согласен	
Член комиссии	XASANOV ODILBEK BEKTURDIYEVICH	Согласен	
Член комиссии	SAPARBAYEV YUSUPBAY ISKANDAROVICH	Согласен	
Член комиссии	DJUMATOV RASHID ZARIFOVICH	Согласен	
Член комиссии	SARIBAYEV AZAMAT BALTABAYEVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП